

**QORA ANDIZ (INULA HELENIUM L.) NI TIBBIYOTDA, XALQ TABOBATIDA VA OZIQ- OVQAT SANOATIDA ISHLATILISHI**

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ВЫСОКОРОСЛОГО АНДИЗА В МЕДИЦИНЕ,  
НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ И ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.

THE USE OF TALL ANDYSE IN MEDICINE, FOLK MEDICINE AND THE  
FOOD INDUSTRY.

*Raximjonova Muhayyo Raxmonjon Qizi*

*Toshkent davlat agrar universiteti magistr-1 talabasi*

*Рахимжонова Мухайё Рахмонжон кызы*

*Магистр Ташкентского государственного аграрного университета*

*Rakhimjonova Muhayyo Rakhmonjon qizi*

*Master of Tashkent State Agrarian university*

**Anotatsiya:** Balan bo'yli qora andiz o'simligini xalq tabobatida, tibbiyotdagi axamiyati va oziq ovqat sanoatidagi axamiyati keltiridi. Uning xom ashysosi xususiyati xaqida uzoq vaqtadan beri bilishadi, ildizini turli xil tarkibi tufayli kuchli ta'sirga ega bo'lgan dorilar qatoriga kiradi. Bir qator patalogiyalarni davolashda yagona komponent sifatida xam qo'llaniladi.

**Аннотация:** Высокорослый андиз черный имеет важное значение в народной медицине и пищевой промышленности, его сырьевые свойства известны давно, а его корень является одним из самых эффективных лекарств благодаря своему разному составу. Также он используется как самостоятельный компонент при лечении ряда патологий.

**Annotation:** the tall black andiz plant is important in folk medicine, medicine and the food industry, its raw material properties have long been known, and its roots are among the most effective drugs due to its different composition. It is also used as a single component in the treatment of a number of pathologies

**Kalit so'z;** (Inula helenium L.), xalq tabobatida ishlatilishi, tibet tabobati, preparatlari va qaynatmalar, yallig'lanishga qarshi, qandli diabit, ildiz va ildiz poyalari, bargi.

**Ключевые слова:** (Inula helenium L.), применяемые в народной медицине, тибетской медицине, лекарственные средства и отвары, противовоспалительные, диабетические, корневые икорневищные,листья.

**Keywords:** (Inula helenium L.), used in folk medicine, Tibetan medicine, drugs and decoctions, anti-inflammatory, diabetic, root and rhizome, leaves.

**Kirish:** Xozirgi kunda tabiy xolda o'sadigan dorivor o'simliklarni zaxiralari insonlar ta'sirida kamayib bormoqda. Buning o'rnini to'ldirish va xalqimiz extiyojini qondirish maqsadida dorivor o'simlik turlarini ko'paytirish va ularni o'zbekistonning

tuproq-iqlim sharoitlarini xisobga olgan xolda sug'oriladigan mintaqalarda ekib o'stish maqsadga muvofiq bo'ladi.O'zbekistomda farmaseftika sanoatini dorivor o'simliklar xomashyosi bilan ta'minlash maqsadida yaqin yillar ichida dorivor o'simliklarni ekib o'stiradigan fermer va iqtisoslashgan xo'jaliklar o'z faoliyatini olib bormoqdalar.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti 2020 yil 10 aprel dagi "Yovvoyi xolda o'suvchi dorivor" o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy xolda yetisshtirish, qayta ishslash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-4670-sonli qarori axoli salomatligini ta'minlash, xalq tabobatida va farmaseftika sanoatida ishlatiladigan o'simliklarni ko'paytirish maxaliylashtirish, ushbu yo'nalishda labaratoriya va ilmiy tadqiqotlar o'tkazishni tashkil etishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2020yil 26-noyabrdagi "Dorivor o'simliklarningetishtirish va qayta ishslash, ularning urug'g'chilikgini yo'lga qo'yishni rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga oid chora tatbirlar to'g'risida"gi ПК-4916-sonli qarori.

Inula Helenium (baland bo'yli qora andiz) Acteracea oilasiga mansub ko'p yillik. Qulay sharoitda buta shaklida xam bo'lishi mumkin. Bu tur 100-200ga yaqin turlari bor. Shulardan 9ta turi o'zbekistonda uchraydi. Xalq orasida boshqa nom bilan xam yuritiladi. To'qqista kuch, yovvoyi kungabooqar, ummon kabi. Dekaratev va Dorivor O'simlik.

Poyasi tik o'sgan qalin,kalta oq tuklar bilan qoplangan.Balandligi 2 m gacha yetadi. Ildizpoyasi kalta yo'g'on undan bir nechta qalin ildizlar chiqadi.ildizi va ildizpoyasi tashqi tomondan jigarrang, ichi sarg'ish rangda. Barglari elipssimon yoki cho'zilgan tuxumsimon. Barglari plastinkalarini uzunlig 30-50cm va kengligi 10-20smga yetadi.sariq rangdagi gullari katta savatchada joylashgan. Mevasi jigarrang, 4-5 mm uzunlikdagi silindirsimon. Iyul va sentyabr oylarida gullaydi.Mevalari avgust oktyabrdagi pishadi.

Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va Surxandaryo viloyatlarida tarqalgan.

Umumiy tarqalishi. markaziy Osiyo, SSSRning yevropa qismi, O'rta yer dengizi, Kavkaz, Garbiy yevropa va qozagistonda topish mumkin.

Ildizlarida inulin -44%gacha efir moylari 1-2% saponinlar, ozmiqdorda alkaloidlar va vitamin e mavjud. Bu moddalar antigelmintik, antiseptik, yallig'lanishga qarshi,bakteritsid ta'sir ko'satadi. Qora andiz ildizlari ovqat xazm qilishni yaxshilaydi, organizmdagi umumiyl metabolizmni rag'batlantiradi.Bundan tashqari gelmentlarga qarshi, balg'am ko'chiruvchi, yallig'lanishga qarshi vosita xisoblanadi.

Toshkent, Samarqand, Andijon, Farg'ona va Surxandaryo viloyatlarida tarqalgan.

Umumiy tarqalishi. markaziy Osiyo, SSSRning yevropa qismi, O'rta yer dengizi, Kavkaz, Garbiy yevropa va qozag'istonda topish mumkin.

### **Tibbiyotda va xalq tabobatida qo'llanilishi**

Qora andiz o'simlik ko'plab kasalliklar bilan kurashiga qodir. U kompleks davolashda ishlatiladi. Ush bu o'simlik preparatlari samarali ekspektoran sifatida ishlatiladi.o'simlik siydik xaydash va xoleretik tasirga ega. Bundan tashqari antiseptic va yallig'lanishga qarshi xususiyatga ega. Qora andiz asosida taylorlangan dorilar oshqozon-ichak funksiyasini normallashtiradi va uning funksiyalarini oshiradi. Mustaxkamlovi ta'siri tufayli uning preparatlari imuniteti past insonlarga buyuriladi. O'simlik ildizi suvli ekstraklari yordamida oshqozonni kislotaligini kamaytirish va uning normal sekritsiyasini tiklash mumkin.

Tibbiyotda preparatlari balg'am ko'chiruvchi farmakoterapevtik guruxiga kiradi. Balg'am ko'chiruvchi va dezinfiksiyalovchi ta'sir ko'rsatadi.Qo'llanilishi balg'am ko'chishi qiyinlashgani bilan kechadigan yuqori nafas yo'llarining kasalliklarining (bronxitlari, traxeitlari) davolashda ishlatiladi. Dorivor o'simliklardan tayyorlangan oshqozon ichak traktida gazlar to'planishini oldini oluvchi ko'plab preparatlar tarkibiga kiradi. Ko'pincha qora andiz preparatlari revmatizm, qandli deabit,oshqozon ichak kasalliklarida buyuriladi.

Qora andiz mikroblarga qarshi, yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. Nafas olish kasalliklarini davolashda organizmga kompleks ijobiy ta'sir ko'rsatadi.Uning ildizlari tarkibida yuqori miqdorda inulin moddasi bo'lgani uchun qandli diabetda ishlatiladi.o'simlik o'tpufragi, jigar, siydik tizimini normallashtirishda, metabolizmga ijobiy tasirini ko'rsatadi. Tashqi tomondan qo'llanganida unga asoslangan vositalar terini yallig'lanishi va yara kasalliklarida yordam beradi. Asosan balg'am ko'chiruvchi vositasi sifatida va surunkali yo'talda ishlatiladi.Bu o'simlikni antik davrdan beri qo'llanilib kelinadi jumladan Gippokrat va Galen turli kasalliklarni davolashda ishlatgan. Avitsennada uni terining qishishi,yaralar uchun tavsiya qilingan.

An'anaviy tibbiyotda ildizidan tashqari urug'i, guli,bargidan xam foydalaniladi.

Teridagi yaralarga barglari ularni tez davolashda, shishishlarni yumshatishga yordam beradi. Barglarining qaynatmasi tanani yuvish uchun ishlatiladi.Gullaridan tayyorlangan damlamalar bo'g'ilish va charchoqqa qarshi ishlatiladi.

Tebit tibbiyotida angina, turli oshqozon ichak kasalliklari, uchun o'simlikning ildiz qismidan foydalaniladi.

Abu Ali Ibn Sinoni takidlashicha xasharotlar chaqqanida xam ildizidan foydalangan. Bundan tashqari teridagi tog'larni ketkazishda, bo'g'imlarning og'riqlari uchun foydalidir.

Bolgariyada yurak urushi va epilepsiysi uchun ildizning spirtli ekstrakti ishlatiladi.

Hindistonda surunkali bronxit va revmatizm uchun ishlatiladi.

Xitoyda yiringli yaralar uchun ekspektoran va antiseptik sifatida ishlatiladi.

Mug'ulistonda xalq tabobatida qora andiz bosh og'rig'ida xam foydalanishadi.barglari kuydirgi va yaralar uchun ishlatiladi.

Rassiyada qora andiz ildizidan bronxit, ko'k yo'tal, antigelment, gemostatik, ishtaxani oshiruvchi vosita sifatida foydalaniladi

Qozag'istonda oshqozon o'n ikki bormoq ichak yaralarinida va antigelmentlarga qarshi vosita sifatida ishlatiladi.

Turkmaniston xalq tabobatida qora andiz oshqozon-ichak kasalliklarini davolash uchun ishlatiladi. Qora andiz ko'k yo'talda, antigelmintik, qon to'xtatuvchi,ishtaxani ochuvchi va metabolzmni yaxshilashda vosita sifatida ishlatiladi.yer osti qismlarining damlamasi va qaynatmasi stressga ega va tanani turli zaxar moddalardan ximoya qiladi.

Yurtimizda bu o'simlik ildizidan yallig'lanishga qarshi, xoleretik, siyidik xaydovchi, gemostatik, revmatizmga qarshi shuningdek, immunostimulyatsiya qiluvchi, antibakterial, yuqori nafas yo'llarining kasalliklari uchun infuziyalar va damlamalar gelmintik invaziyalarga qarshi ishlatiladi. Bundan tashqari skelet va muskullarni mustaxkamlaydi, ichaklardan ortiqcha xolesterinni olib tashlaydi.



1-rasm ildizi va damlamasi



2-rasm ildizi

Bronxit uchun bir stakan issiq suvga 2 osh qoshiq qora andiz ildizlari,yarim soat davomida qaynatiladi.sovuganidan keyin filtirlab siqib olinadi.bir kunda uch marta ovqatdan oldinichiladi.

### Oziq-ovqatda ishlatilishi

Ushbu o'simlikdan oziq-ovqat sanoatida konsentratlarni ishlab chiqarishda ishlatiladi.Yevropa mamlakatlarida o'ziga xos hidi bo'lgani uchun yoqimli hid berish uchun oshpazlar ichimliklar va qandolatchilikda yangi ildizlaridan sabzavotli sho'rvalarga, quruq ildizlaridan esa pishirilgan maxsulotlar, souslar marinadlarga

qo'shiladi. Baliq va konserva sanoatida qora andiz ildizlaridan zanjabil o'rnnini bosivchi vosita sifatida ishlatiladi.

**Xulosa:** (Inula helenium L.) ni to'qqiz kuch deb nomlanishi bejizga emas, uni ildizi va ildizpoyasi juda ko'kasalliklarga davo xisoblanadi. Xom-ashyolarini boshqa o'simlik xom-ashyolari bilan qo'llash xam ancha samarali natija ko'rsatadi.Xozirgi kunda uning sirob,tabletka ko'rinishida tibbiyotda ishlatiladi.

### **Adabiyot ro'yxati**

1.O'zbekiston Respuplikasi prezidentining 2020yil 10 apreldagi «Yovvoyi xolda o'suvchi dorivor o'simliklarni muxofaza qilish, madaniy xolda yetishtirish,qayta ishlsh va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlari» to'g'risidagi PQ-4670-son qarori.

2.Флора Узбекистана А.И. Введенский.-Ташкент:Издательство Академии Наук УзССР,1962-Том6.

3.Dergacheva, J.M. qora andiz gullaridan foydalanish istiqbollori/zh.m. dergacheva, n. s./dorixona byulletini.-vitseb: Vitebsk davlat tibbiyot universiteti,2008.-N 41.- S.18-20

4.Zelenskaya, K.I Inula helenium L./dan olingan ekstraktlarining yallig'lanishga qarshiregenerativ xususiyatlari. Zeleniskaya,T.I. Poveteva

5. Abu Ali bin sino tib qonunlari 4-jilt 1980 yil.